



Cognitive bases of neologisms in the french language

Maftuna TURAEVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

25 October 2024

Keywords:

neologisms,
neosemies,
neconcept,
classification,
categorization,
conceptualization etc.

ABSTRACT

This article explores word formation as a key process in reflecting new concepts in language. The study is based on the works of renowned linguists, including European and American scholars such as G. Lakoff, J.F. Sablérol, Jean Pruvost, Émile Benveniste, Louis Gilbert, and J.-C. Boulanger, as well as Russian linguists such as N.N. Boldyrev, L.M. Borisenkova, Yu.S. Stepanov, N.F. Alefirenko, L.Yu. Kasyanova, and others.

The analysis revealed that word formation operates alongside other linguistic phenomena deeply rooted in the processes of conceptualization and categorization. This process establishes a unique system of perception, contributing significantly to the formation of imagination and understanding in the human mind.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp313-318>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Fransuz tilidagi yangi soʻzlarning kognitiv asoslari

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

neologizmlar va
neosemiyalar,
neokonsept,
klassifikatsiya,
kategoriyalashtirish,
konseptualizatsiya va h.z.

Ushbu maqolada yangi tushunchalarning tilda aks etish jarayonlardan biri boʻlgan soʻz yasalihi haqida tasnif berishga harakat qilamiz.

Tadqiqot asosi etib quyidagi tilshunos olimlarning izlanishlari: Yevropa va Amerika professorlari J. Lakoff, J.-F. Sablayrolles, Jean Pruvost, Emil Benvenist, Louis Guilbert, J.-C. Boulanger, rus tilshunoslari N.N. Boldirev, L.M. Borisenkova, E.S. Kubryakova, Yu.S. Stepanov, N.F. Alefirenko, L.Y. Kasyanova, I.A. Gavrilova va boshqa yetuk tilshunoslar tadqiqotlariga murojaat etildi.

Tadqiqot mahsuli sifatida shu ayon boʻldiki, soʻz yasalihi boshqa lingvistik hodisalar qatori konseptualizatsiya va kategoriyalashtirish jarayonlariga tayanadi va idrokda oʻz tizimini tuzib, ongda tasavvur hosil boʻlishini yengillashtiradi.

¹ 2st year doctoral student of Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: maftuna-t@samdchti.uz

КОГНИТИВНЫЕ ОСНОВЫ НОВЫХ СЛОВ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

неологизмы и неосемии,
неоконцепт,
классификация,
категоризация,
концептуализация и др.

В данной статье исследуется словообразование как ключевой процесс, отражающий новые концепции в языке. Исследование основывается на работах известных лингвистов, включая как европейских и американских учёных (Дж. Лакофф, Дж.Ф. Саблероль, Жан Прюво, Эмиль Бенвенист, Луи Гильбер и Ж.-К. Буланже), так и российских специалистов (Н.Н. Болдырев, Л.М. Борисенкова, Ю.С. Степанов, Н.Ф. Алефиренко, Л.Ю. Касьянова и другие).

В процессе анализа было установлено, что словообразование функционирует в тесной связи с другими языковыми явлениями, которые глубоко укоренены в процессах концептуализации и категоризации. Этот процесс формирует уникальную систему восприятия, оказывая значительное влияние на воображение и понимание в человеческом сознании.

KIRISH

Barcha zamonaviy yutuqlar inson hayot tarzi qay darajada takomillashayotganidan darak beradi. Shuningdek, mavjud hodisalarni, obyektlarni, faktlarni tilda aks ettirish, ifodalash va yetkazish, ularni yaxshiroq tushunish va bilishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, yangi lug'at insonning o'zgaruvchan voqelikni o'zlashtirishdagi kognitiv faoliyati natijasining lingvistik ifodasi bo'lib, u voqeliklarni, tushunchalarni, yangi hodisalarni aks ettiradi; shuningdek, ularni yangi so'zlar bilan qamrab oladi yoki allaqachon ma'lum bo'lgan tushunchalarni chuqurroq idrok etish va anglashga yordam beradi. Buning uchun biz kognitiv tilshunoslikka murojaat qilamiz hamda yangi tushunchalarning so'zdagi ifodalarini ko'rib chiqamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Konseptual xususiyatlar berilgan tushunchani ifodalovchi til birliklarining ma'nolari, ularning lug'atdagi ifodalari va nutq kontekstlari orqali aniqlanadi. Konseptlar tahlilining bunday turi konseptual tahlili deb ataladi. Shunga ko'ra, konseptual tahlil obyekti – bu alohida so'zlar, iboralar, propozitsiyalar va ularning aniq iboralar shaklida realizatsiyalari orqali ifodalayotgan ma'no va tushunchalaridir. Shuningdek, ushbu tahlil metodi til tizimida va nutqda konseptlarni ifodalashning barcha mavjud lingvistik vositalarini taqqoslash, konseptlarning asosiy mazmunini, ularning turli tasniflarini, lingvistik ma'nolarning shakllanishidan boshlab lingvistik materiallarni tashkil etish tamoyillarini aniqlashga, lingvistik kategoriyalarning shakllanishi asoslarini o'rganish imkonini beradi.

Tilni tafakkur bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos inson faoliyati sifatida tavsiflovchi kognitiv yondashuv doirasida insonning o'zini o'rab turgan dunyoni tushunishining asosiy usullari bo'lgan konseptuallashtirish va turkumlashtirish jarayonlari ko'rib chiqiladi. Konseptualizatsiyaning murakkab jarayoni, N.N. Boldirevning fikricha, [Болдырев, 2014; 25-26b.] boshqa xarakterdagi bilimlarni qayta ishlash va to'plash va ularning shaxs ongida tushunchalar shaklida aks etishini o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Konseptualizatsiya natijasida yangi ma'nolar paydo bo'ladi. Yangi ma'nolar shaxsning konseptual tizimida allaqachon mavjud bo'lgan tushunchalar va konseptual tuzilmalar asosida ham paydo bo'lishi mumkin, ya'ni har xil turdagi yasama so'zlar obyektivlashtirilib, ikkilamchi konseptualizatsiya amalga oshirilishi mumkin.

Kategoriyalashtirish deganda voqelik predmetlari va hodisalarini toifalar – umumlashgan tushunchalar doirasida anglab yetish tushuniladi. Shu bilan birga, tilshunos Skrebsovaning fikricha, kategoriyalashtirish kognitiv jarayon sifatida til yordamida ma'lumot almashish, uni shaxsning mavjud bilimlar tizimi bilan bog'lash, obyektlar va hodisalarni o'xshash obyektlar va hodisalarning ma'lum bir guruhi bilan aniqlash, toifalash va tasniflashdir.

G. Lakoff [Lakoff, 1988; 31-32b.] toifalash ya'ni kategoriyalashtirishning asosini o'rganish davomida nima uchun inson ongi aynan toifalarga ajratgan holda angelaydi degan savolga javob izlaydi. U toifalashning asosini insoniyat uchun umumiy bo'lgan harakatlar, ma'lum kognitiv modellar ko'rinishida namoyon bo'ladigan kognitiv mexanizmlar tashkil etadi, – deb hisoblaydi va kognitiv modellarni 4 turdagi tasniflash jarayoniga ajratadi. Ushbu modellar o'zlarining tuzilishi, xususiyatlari va prototiplari bilan farq qiladigan propozisional modellar, tasvirlarning sxematik modellari, metaforik va metonimik modellardir. Kognitiv mexanizmlar bilim tuzilmalari bilan va ular ustidagi harakatning muayyan modellarini ifodalaydi.

Kognitiv yondashuv maxsus semantik munosabatlarda amalga oshiriladigan bilimlarni ifodalash usulini o'rnatishga, lingvistik tuzilmalarda moddiylashtirilishi kerak bo'lgan tildan tashqari tajribani lingvistik aks ettirish mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi. Neologiyada kognitiv yo'nalish o'zining boshlang'ich va shakllanish bosqichidadir. Ammo bu sohada ishlaydigan tilshunoslarning fikriga ko'ra, inson til yordamida turli xil bilimlarni shifrlaydi, to'playdi, saqlaydi va uzatadi. Shu sababli, "kognitivistlar" neologizmlarda yashiringan bilim tuzilmalarini va ularning zamonaviy ona tilida so'zlashuvchi dunyosining lingvistik va konseptual tasvirga ta'sirini tahlil qilishga harakat qilmoqdalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv faoliyat jarayonida voqelikning yangi obyektlarini bilish yoki ilgari ma'lum bo'lgan narsaning yangi qirralari, belgilari va xususiyatlarini kashf qilish, odam "voqelikni aqliy aks ettirish natijalarining tarjimoni va lingvosemioz markazi" [Алефиренко, 2006; 31-41b.] sifatida bilish natijalarini yangi so'z bilan ifodalashga intiladi. [Касьянова, 2009; 2b.] Shu munosabat bilan, inson o'z atrofidagi voqelikdagi yangi narsalarni, jarayonlarni qanday idrok etishi va konsepsiyalashi, qanday obyektiv va subyektiv omillar dunyoning yangilangan tasviriga olib kelishini o'rganish dolzarb bo'lib qoladi. Insonning kundalik yoki ilmiy-texnikaviy g'oyalarini aks ettiruvchi, anglab olinadigan tildan tashqari obyektlarni konseptuallashtirishning lingvistik vositalarini izlash alohida ahamiyatga ega. Yangi leksik birliklarning paydo bo'lish jarayoni bir qator kognitiv omillar bilan belgilanadi. Bularga voqelikni idrok etish jarayonida yangi tushunchalarning vujudga kelishi va ularning lingvistiklashtirilishi; jamoatchilik ongida allaqachon qayd etilgan dunyoning konseptual manzarasining fragmentlarini aniqlash, ularni qayta ko'rib chiqish va chuqur bilishning madaniy va tarixiy, kognitiv-pragmatik omillar hisoblanadi.

L.M. Borisenkova [Борисенкова, 2005; 13b.] soʻz yasallishini dunyoning lingvistik tasvirining asosiy tarkibiy qismi hisoblab, uni anglovchi, qabul qiluvchi subyektning ongida atrofdaolam va oʻz-oʻzini kategoriya va subkategoriyalarga ajratgan holda verbal tasvirlash deb taʼrif beradi. Soʻz yasallishning kognitiv yondashuvi tadqiqotchiga tilning yaxshi oʻrganilgan sohasining yangi aspektlarini tushunish imkoniyatini beradi va yangilik til faktlarining oʻzida emas, balki ularga boʻlgan qarashda hamdir.

Har bir til belgilarining yaratilishi va tilda birlamchi namoyon boʻlish vaqti mavjud boʻlib, E.S. Kubryakovaning soʻzlariga koʻra, [Кубрякова, 2002; 5-7b.] aynan oʻsha lahzalarni qayta tiklash mumkin emas va bilimning maxsus tuzilishini bitta soʻzga obyektivlashtirish jarayoni qanday sodir boʻlishini bilib boʻlmaydi. Neologizmlar esa aynan: yangi til belgilarining paydo boʻlishining shartlari, sabablari, motivlari va oʻziga xos usullari, ularni modellashtirishning barcha xususiyatlarini koʻrsatadi.

L.Yu. Kasyanova “Yangi soʻzlar yaratilishida kognitiv omillar” maqola [Касьянова, 2008; 4b.] sida, yangi soʻzning paydo boʻlishini oldindan belgilab beruvchi omillarni 2 qismga boʻladi: yangi soʻzning paydo boʻlishining kognitiv stimullari Yu.S. Stepanov qarashlari va N.F. Alefirenkoning kognitiv-semiologik paradigmasi izlanishlariga.

Yu.S. Stepanovning soʻzlariga koʻra, yangi soʻzning paydo boʻlishiga inson ehtiyoji sabab boʻladi, ushbu ehtiyoj esa ongni faollashtiradi. Demak inson ongida dastlab miltillovchi konseptlar paydo boʻladi. Ushbu “miltillovchi konseptlar” [Кубрякова, 2002; 321b.] deb ataluvchi yangi bilim fragmentlari, bir tomondan, voqelik olamiga mos kelishini, ikkinchi tomondan, ular insonning kognitiv tajribasi bilan oʻzaro munosabatini aniqlaydi. Konseptlar nomlash yoki verbalizatsiya orqali kategoriyalar va subkategoriyalarga ajratiladi. Bu fikrni rivojlantirish uchun aytishimiz mumkinki, yangi soʻz shaxsning nutqiy faoliyatidagi kommunikativ-pragmatik ehtiyojlari bilan tilning nominativ-reprezentativ imkoniyatlari oʻrtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish jarayonida paydo boʻladi. Bu ziddiyat koʻpincha yangi soʻzning soʻz yasash yoki soʻz oʻzlashtirish orqali paydo boʻlishi bilan bartaraf etiladi.

N.F. Alefirenkoning qarashlari esa oʻz tarkibiga ijtimoiy ong tomonidan allaqachon qayd etilgan dunyoning konseptual tasvirining parchalarini aniqlashtirish, qayta koʻrib chiqish va chuqur bilish; inson ongida ishlab chiqilgan til va voqelik oʻrtasidagi munosabatlar mexanizmlarini oʻrganishga tayanuvchi kognitiv-semiologik paradigmasidir. Turli semantik jarayonlarni aniqlaydigan kognitiv izlanish natijasida yangi lugʻatning umumiy oqimining muhim qismini tashkil etuvchi semantik neologizmlar paydo boʻladi. Leksik tarkibdagi sifatli oʻzgarish – yangi soʻzlarning neosemiyalarini hosil qilishi va mavjud boʻlgan birliklarning maʼnolarini oʻzgartirish natijasida yuzaga keladi. N.F. Alefirenko bu jarayonni, insonning lingvokognitiv faoliyati bilan belgilaydi: “Atrofimizdagi olam haqidagi bilimlar cheksiz boʻlgani uchun, u haqidagi bilimlarimizni oʻzgartirish va takomillashtirish, bilish obyektlarining yangi belgilari va xossalarini ochish bilan bogʻliq holda, tabiiyki maʼno va ular bilan bogʻliq semantik jarayonlarning oʻzgarishlarga olib keladi”. [Степанов, 2005; 86b.]

N.F. Alefirenkoning qarashlari bilan mutanosib, A. Gavrilova [Гаврилова, 2015; 235-235b.]ning fikricha, neologizmlarning paydo boʻlishi – voqelikni anglash jarayonida yangi tushunchalarning paydo boʻlishi va ularga tegishli atamalarning shakllanishi; jamoatchilik ongida allaqachon qayd etilgan dunyoning konseptual manzarasining fragmentlarini aniqlash, qayta koʻrib chiqish va chuqur bilish, shuningdek kognitiv-kommunikativ omillar bilan bogʻliqdir.

I.N. Zenina maqolasida yangi yasamalarni o'rganish davomida ularning shakllanishida ikkita yetakchi kognitiv omillarni: yangi tushunchalar ya'ni neokonseptlarning paydo bo'lishi omili va dunyoning konseptual va lingvistik tasvirda allaqachon ma'lum bo'lgan va qayd etilgan tushunchalarni chuqurroq va batafsilroq tushunish yoki qayta ko'rib chiqish omilini sanab o'tadi. "Neokonsept yangi ma'lumot bo'lib, u atrofdagi voqelikdagi oby'ektni aniqlash mezoni, ma'lum bir konseptual tizimning tashuvchisi" – deb ta'rif beradi L.Y. Kasyanova [Касьянова, 2009; 134b]. Neokonseptlarni aniqlashning asosiy mezoni – bu tegishli konseptni amalga oshiradigan leksik birliklarning yo'qligidir. Ya'ni neokonsept maqomi leksikografik manbalarda uning ta'rifining yo'qligi, boshqa lingvistik shaklda faol emasligi va bu tushunchani yoritib beruvchi sinonim so'zlarning yo'qligi bilan tasdiqlanadi. Bu so'zlar eng so'nggi ilmiy-texnik ixtirolarning va shunga mos ravishda yangi tushunchalarning lingvistik ifodasidir. Boshqa sohalaridagi yangi faktlar va hodisalar tilda oby'ektivlikni topadi, ularning paydo bo'lishiga asosan zamonaviy hayot va ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal sur'ati sabab bo'ladi.

Ikkinchi omil yangi nominatsiya allaqachon ma'lum bo'lgan, ammo nomlari bo'lmagan voqelikning ba'zi xususiyatlarini bilish natijasi bo'lishi mumkin. Bu, qoida tariqasida, oby'ektning majoziy idrokini semantik transformatsiyada, ko'pincha metaforik tarzda birlashtiradigan yangi lingvistik birlikda o'z aksini topadi. Binobarin, bu kognitiv omil tilda yangi shakllanishlarning paydo bo'lishiga ko'proq hissa qo'shadi va miyamizning doimiy kognitiv faolligini aks ettiradi.

Yangi so'zning leksik ma'nosi lingvistik ongda voqelikning idrok qilinadigan obyektining aksini, uning dunyoning qayta chizilgan (yoki yangilangan) lingvistik tasviridagi o'rni va rolini birlashtiradi. Shuning uchun L.Yu. Kasyanova qayd etganidek [Касьянова, 2008; 45-47b.] tadqiqot diqqat markazida: Yangi so'z yaratilish jarayonida hosil bo'lgan tovush majmuasi bilan yangi yoki yangilangan tushunchalar o'rtasidagi munosabat va til belgisini ifodalovchining yangi anglatuvchiga munosabati bo'ladi. Umuman olganda, bunday yondashuv tilning nutqiy-aqliy konsepsiyasidan kelib chiqadi, uning ifodalovchi qismi orqali namoyon bo'lishi kognitiv va nominativ-pragmatik funksiyalariga asoslanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yangi bilimlar va allaqachon ma'lum bo'lgan bilimlar inson onging konseptual tasvirida chuqurroq va to'liqroq anglanadi va tushuniladi. Inson ongida yangi ma'lumotni tushunish va aniqlash, uni kategoriya va subkategoriya bo'lish sodir bo'ladi. So'z yasalishining kognitiv aspektlari o'z o'rnida neokonseptlar va mavjud bo'lgan semantik birliklarning yangi qirralarini ochishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lakoff G. Cognitive Semantics. In Meaning and Mental Representations. 1988. Retrieved from <https://escholarship.org/uc/item/04086580>
2. Алефиренко Н.Ф. Проблемы когнитивно-семиологического исследования языка / Н.Ф. Алефиренко // Слово – сознание – культура: сб. науч. тр. М.: Флинта: Наука, 2006. С. 31 – 41.
3. Алефиренко Н.Ф. Спорные проблемы семантики: монография / Н.Ф. Алефиренко. М.: Гнозис, 2005 с.86.

4. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику: курс лекций/ Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2014. 236 с.
5. Борисенкова Л.М. «Когнитивные аспекты словообразования, Тверь-2005 с.272.
6. Гаврилова И.А. Когнитивные стимулы порождения термина-неологизма (на примере английской полиграфической терминологии) // Язык науки и техники в современном мире: материалы IV Международной научно-практической конференции. Омск: 2015. С. 235-238.
7. Касьянова, Л Ю Когнитивные факторы порождения нового слова [Текст] / Л Ю Касьянова // Известия Волгоградского государственного педагогического университета Серия «Филологические науки» – 2008 -№2 (26) – С 75-82.
8. Касьянова Л. Ю. Когнитивно-дискурсивные проблемы неологизации в русском языке конца XX – начала XXI века: дисс. ... д. филол. н. Астрахань, 2009. с.134.
9. Касьянова Л Ю Оценочная семантика нового слова [Текст] /Л Ю Касьянова // Вестник ЧелГУ «Филология Искусствоведение» -Вып 19 -№9(110) -2008 – С 45-51.
10. Кубрякова Е.С. Неология: проблемы и перспективы // Проблемы английской неологии: материалы научной конференции (29 января 2002 г.). М.: МГЛУ, 2002. С. 5-7.
11. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. М.: Едиториал УРСС, 2005. 312 с.